



ASHTARXONIYLAR DAVRI TARIXINING YORITILISHI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI

Xurshida Fayzullayeva O'lmas qizi

Buxoro davlat Pedagogika instituti

Pedagogika va Ijtimoiy fanlar fakulteti

2-Tar 23 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ashtarxoniyalar (Joniylar) davri (1601-1756) tarixini yorituvchi adabiyotlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu manbalar O'zbekistonning XVIII arning o'rtalariga qadar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni yoritib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ashtarxoniyalar, Buxoro xonligi, "Tarixi Muqimxoniy", "Ubaydullanoma", "Abulfayzxon tarixi", "Gulshan ul-mulk".

Mustaqillik yillarda O'zbekiston tarixi har tomonlama xolis va ilmiy yoritila boshlandi. Ayniqsa o'zbek davlatchili tarixi va uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnnini yoritishga katta e'tibor berilmoqda. Shubhasiz, o'zbek davlatchiligi an'analarining shakllanishida va taraqqiy etishida muhim o'rin tutgan davrlardan biri O'zbek xonliklari davri hisoblanadi. Ushbu davrni o'rganishda voqeahodisalarga to'g'ri va xolis baho berishda bu davr oralig'ida yaratilgan manbalar, mahalliy muarixlarning asarlari, arxiv hujjatlari, Markaziy Osiyo hududiga XVI-XIX asrlarning birinchi yarmida tashrif buyurgan elchilar, sayohatchilar, harbiylar va boshqa shaxslarning xotiralari muhim o'rin tutadi. XVII-XVIII asr boshlari tarixini bayon etuvchi Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriyning «Muhit ut-tavorix», Abdurahmon Tole'ning «Abulfayzxon tarixi», Muhammad Yusuf Munshiyning «Muqimxon tarixi» asarlari aynan Ashtarxoniyalar davri tarixining mahsulidir. Bundan tashqari



Mahmud ibn Valining « Bahr ul asror », Xoja Samandar Termiziyning « Dastur al-muluk », Muhammad Vafo Karmanagiyning « Tuhfat ul-xoniy » kabi tarixiy asarlar yaratildi.

Yuqorida tilga olingan asarlar asosida Ashtarkoniylar sulolasi Buxoro xonligida Shayboniylardan keyin taxtga kelgan sulola ekanligi ma'lum bo'ladi. « Shayboniylar Buxoroda 1598-yilgacha hukmronlik qildilar, keyin hokimiyat joniylar qo'liga o'tdi », deyiladi ba'zi rus manbalarida. Ular Jo'jining o'g'li O'rda avlodidan bo'lib, shayboniylarga ona tarafdan qarindosh edilar. Buxoro taxtiga o'tirgan bu so'nggi shayboniy haqida taniqli tarixchi M.A. Abduraimov ham to'xtalib o'tgan. Uning ta'kidiga ko'ra, Pirmuhammad « Abdullaxoni soniyning tog'asi keksa Pirmuhammad » bo'lgan. Aslida esa « Abdullaxoni soniyning tog'asi keksa Pirmuhammad » allaqachon, Balx xoni bo'lib turganda (1546-1567) olamdan ko'z yumgan edi. Abdulmo'minning vafotidan (1598) keyin shayboniylar sulolasi barham topgani haqidagi fikr V.V. Velyaminov-Zernov asarlarida keltirilgan hujjat va dalillar asosida yuzaga kelgan. Iskandar Munshiyning « Tarixi-i olamoroyi Abbosiy » asarida Abdulmo'mindan keyin taxtga shahzoda Pirmuhammad chiqqani va u Abdullaxonning qarindoshi va Jonibek urug'idan bo'lgan shahzoda» ekani ta'kidlanadi. V.V. Velyaminov-Zernov o'z mulohazalarini « Tazkira-yi Muqimxoniy » va Iskandarbek Munshiyning yuqorida tilga olingan « Tarix-i olamoroyi Abbosiy » asarlariga asosan bayon etgan edi. Iskandar Munshiy bergen ma'lumotlar asosida u bunday deb yozadi: « 1598-yilning yozida Abdullaxonning toju-taxt vorisi Abdulmo'min qotillar qo'lida shahid bo'ldi. Uning ikki yashar o'g'li bo'lgani uchun hech kim uning xonlik huquqini tan olgisi kelmadi. Boshqa voris bo'lgudek odam yo'q edi. Davlatning turli burchaklaridan xonlikka da'vogarlar chiqsa boshladи. Buxoro taxtini Abdullaxonning qarindoshi Jonibek urug'idan Pirmuhammad egalladi. Pirmuhammad Buxoro xonligini yana ikki yil idora qildi. Bu haqida «Bahr ul-asror », « Tarixi olamoroyi Abbosiy », « Silsilat ul-salotin » va boshqa bitiklar guvohlik beradi. Masalan, « Tarixi olamoroyi Abbosiy »da Eron



O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan voqealar bayon qilinar ekan, Pirmuhammadxonning elchilari 1600-yilning 9-martida Mashhadda bo'lganligini aytadi.

Abdulmo'minning vafot etgani eshitgan qozoq xonlari Turkiston va Movarounnahr shaharlariga hujum boshlaydilar. Pirmuhammadga yordam berish maqsadida Boqiy sulton keladi. Lekin tez orada ularning munosabatkari buziladi va Boqiy sulton o'ziga hamfikr o'zbeklarni Pirmuhammadga qarshi qilib qo'yadi. Oxir-oqibat jangda Pirmuhammad halok bo'ladi. Boqiy sulton Buxoroda hech qanday qarshiliksiz taxtni egallaydi. « Tarixi Qipchoqxoni » asarida ayttilishicha bu voqeа 1602-yilda sodir bo'lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, « Bahr ul-asror » va « Matlab ut-tolibin »ga, O'rta Osiyoning o'zida bitilgan asarlarga kelsak, bularda sulolalar almashinuvi 1601-yil deb aniq ko'rsatilgan. O'rtaga qo'yilgan masalani hal qilishda manbalardan yana uchtasi- « Tarixi Qipchoqxoni », « Tarixi kasira », « Silsilat ul-salotin » muhim o'rin tutadi. Bu asarlar muhokama qilinayotgan voqeadan yuz yilcha keyin yozilgan bo'lishiga qaramay, ular O'rta Osiyoning XVI-XVII asrlar tarixini o'rganishda qimmatli manbalardir. Ularda ilgarigi manbalarda uchramaydigan tafsilotlar mavjud. Buning ustiga yaqingacha tadqiqotchilarga noma'lum bo'lgan « Silsilat ul-salotin » ashtarkoniylar sulolasi vakili qalamiga mansub bo'lib, xronologik va genealogik ma'lumotlarga boydir. « Tarixi kasira » va « Silsilat ul-salotin »da ashtarkoniylarning hokimiyat tepasiga kelgan yil 1601 deb aniq ko'rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.Mirziyoyev Sh.M. « Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz » O'zbekiston, 2017-yil.



2. Ahmedov Bo‘riboy. Tarixdan saboqlar.Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari tarix fakultetlari uchun qo‘llanma-Mas’ul muharrir H.Ziyoyev-T.:O‘qituvchi, 2023, 432-bet.

Internet saytlari:

1.<http://Ziyonet.uz>

2.<http://edu.uz>